

• YOSH BILIMDON ENSIKLOPEDİYASI •


DINOZAVRLAR





„YOSH BILIMDON ENSIKLOPEDIYASI“

DINOZAVRLAR



ZIYO NASHR

Toshkent
2022

UO'K: 568.19(031):087.5

KBK 28.6ya2

D 53

Tuzuvchi

OYBEK XAYDAROV

D 53 **Xaydarov, Oybek.**

Dinozavrlar. [Matn]: „Yosh bilimdon ensiklopediyasi“ turkumidan / tuzuvchi O. Xaydarov. – T.: „Ziyo nashr“ nashriyoti, 2022. – 96 b.

ISBN 978-9943-5883-3-2

Aziz bolajonlar!

Ushbu kitob sayyoramizda qachonlardir yashab o'tgan dinozavrlar haqida. Olimlar Yer yuzining turli nuqtalaridan topilgan ulkan suyaklarga qarab, sayyoramizda yashagan bu bahaybat hayvonlarning qanday hayot kechirgani, nima uchun qirilib ketgani haqida ilmiy xulosalar chiqargan.

Nashriyotimiz tomonidan tayyorlangan ushbu kitob ana shu ulkan mavjudotlar – dinozavrлarga bag'ishlangan.

UO'K: 568.19(031):087.5

KBK 28.6ya2

Abdulla Qodiriy nomidagi
viloyat AKM
INV № 2023/7-143

ISBN 978-9943-5883-3-2

© O. Xaydarov (tuz.).

© „Ziyo nashr“ nashriyoti, 2022.



MUNDARIJA


Kirish 6

G'AROYIB MAVJUDOTLARNI QIDIRIB

Dinozavrlar o'zi qanday jonivorlar? 10
Dinozavrlarni qayerlardan izlaymiz? 12

GO'SHTXO'R DINOZAVRLAR

Yirik allozavrlar 16
Megalozavrlar 18
Seratozavrlar 20
Tirannozavrlar 22
Dromeozavrlar 24
Deynoxeyrus 26
Deynonix va velosiraptorlar 28
Gallimimlar 30
Ornitomimlar 32



O'TXO'R DINOZAVRLAR

Stegozavrlar	36
Zauropodlar	38
Barapazavrlar	40
Braxiozavrlar	42
Diplodoklar	44
Seysmozavrlar	46
Skutellozavrlar	48
Nodozavr va polokant	50
Ankilozavrlar	52
Tritserotopslar	54
Psittakozavr	56
Zauroloflar	58
Parazauroloflar	60
Anxiserotops	62
Iguanodontlar	64
Gadrozavrlar	66
Kentrozavrlar	68



DENGIZ XO'JAYINLARI

Ixtiozavrlar	72
Shonizavrlar	74
Pleziozavrlar	76
Pliozavrlar	78

QANOTLI DINOZAVRLAR

Ramforinxoidlar	82
Sochli sordeslar	84
Pterodaktillar	86
Ketsalkoatl	88
Sharovipterikslar	90
Kyuneozavrlar	92
Longiskvamalar	94

KIRISH

Quyosh tizimi va Yerning yaratilganiga bir necha milliard yil bo'libdiki, sayyoramizda hayot davom etmoqda. Shu davr ichida qanchadan qancha mavjudotlar sayyoramizga hukmronlik qilmagan deysiz. Katta-kichik, uzun-kalta, semiz-ozg'in, xullas, ona Yerimiz turli xil jonivorlarga boshpana bo'lib kelmoqda. Mana shu millionlab turli xil mavjudotlarning eng kenjasini Inson hisoblanadi.

Yerda tirik organizmlarning paydo bo'lganiga 3,8–4 milliard yil bo'lgan bo'lsa, odamzodning yashay boshlaganiga bor-yo'g'i bir necha million yil bo'ldi, xolos. Xo'sh, insoniyatgacha qaysi mavjudotlar Yer yuzida hukmron edi? Ular nima sababdan qirilib ketgan? Bu savollar dunyo olimlarini uzoq yillardan beri o'ylantirib kelmoqda.

Yerdagi hayotning rivojlanish va o'zgarish shakli evolutsiya deb ataladi. Evolutsiya natijasida ayrim organizmlar atrof-muhitga yana da moslashib oldilar. Lekin evolutsiya jarayoni bir maromda davom etgan emas. Sayyoramizning relyefi, materik va okeanlar shakli, iqlimi o'zgarib turgan. Shu o'zgarishlar natijasida sayyoramiz tarixida bir necha marotaba tirik mavjudotlarning yoppasiga qirilishiga olib kelgan halokatlar ham bo'lib turgan. Ammo hayot davom etardi. Qirg'inga uchragan organizmlar o'rniga esa yangilari paydo bo'laverardi.

Har bir davning hukmron mavjudotlari bo'ladi. Shuningdek, Mezozoy davrining ham boshqa organizmlarga nisbatan ko'pchilikni tashkil etadigan jonzotlari bor edi. Bular reptiliyalar (sudralib yuruvchilar) edi. Ular quruqlikda ham, suvda ham keng tarqalgan jonivorlar bo'lgan. Shuning uchun ham Mezozoy davrini olimlar reptiliyalar davri deb atashadi.


Reptiliyalar ham evolutsiya natijasida kamayib yoki o'zgarib bordi va ulardan keyin „Hukmronlik“ dinozavrlarga o'tdi. Qo'lingizdag'i kitobda aynan mazkur afsonaviy mavjudotlar haqida so'z boradi.

Dinozavrlar quruqlikda juda uzoq vaqt – taxminan 165 mln yil hukmronlik qilgan va sayyoramizning eng ajoyib umurtqali hayvonlaridan bo'lган. Dinozavrlar orasida dahshatli yirtqichlari ham, o'txo'rлари ham, bahaybatlari-yu, hatto g'aroyib ko'rinishga ega tinchliksevarlari ham bor edi. Ularning Yer yuzida keng tarqalishi, hukmron mavjudotlarga aylanishi va Mezozoy davri oxiridagi kutilmagan halokatlarining sababi nimaligi olimlarni jiddiy o'ylashga majbur qilmoqda. Tadqiqotlar natijasida esa olimlar aql bovar qilmas ma'lumotlarni qo'lga kiritishgan.

Mazkur kitobda dinozavrlar olamiga birgalikda sayohat qilamiz. Ularning turlari, ko'rinishlari, qanday yashaganliklari, nima uchun qilib ketgani kabi savollarga javob topishga urinib ko'ramiz.

G'AROYIB MAVJUDOTLARNI QIDIRIB

Bu bo'limga dinozavrular qanday jonivorlar bo'lgan, ularning ya-shab o'tgani qanday aniqlangan, qayerlardan suyak qoldiqlari topil-gan, tana tuzilishlari qanaqa bo'lgan, qaysi dalillarga tayanib olimlar ular to'g'risida kitoblar yozishgan kabi savollarga javob topasiz.






DINOZAVRLAR O'ZI QANDAY JONIVORLAR?

Dinozavrlar – ko'plab xususiyatlari reptiliyalarga o'xshab ketuvchi, ikki va to'rt oyoqli, tuxum qo'yib ko'payuvchi, juda yirik mavjudotlardir.

Dinozavrlar ham reptiliyalar kabi tuxum qo'yib ko'payadigan jonivorlar, dedik. Ularga bu xususiyat reptiliyalardan o'tgan bo'lishi ehtimol. Shuningdek, evolutsiya jarayonida tuxumdan rivojlanish reptiliyalardan qushlarga ham o'tgan. Dinozavrlarning reptiliyalardan ustunlik tarafi – ularning yanada rivojlangan qo'l va oyoqlarga egaligidir.

Hozirgi reptiliyalarda qo'l-oyoqlar gavdaning yon tomonida joylashganligi uchun tebranib harakat qilishadi. Orqa tomoni esa yerga ishqalanib yuradi. Shuning uchun reptiliyalarni boshqachasiga sudralib yuruvchilar deb ham atashadi. Dinozavrlarning qo'l va oyoqlari esa qush va boshqa hayvonlarniki kabi joylashgan. Dinozavrlarning ayrimlari ikki oyoqli bo'lgan va yaxshi yugura olgan. Ayrimlari esa (asosan, o'txo'rлari) o'ta bahaybat gavdalari tuyfayli to'rt oyoqda harakatlangan. To'rt oyoqli dinozavrlar Yerda mavjud jonivorlarning eng kattasi bo'lgan.





DINOZAVRLARNI QAYERLARDAN IZLAYMIZ?

Uzoq davrlar mobaynida dinozavrlar haqida hech kim bilmagan. Keyinchalik dinozavr suyaklari olimlar qo'liga tasodifan tushib qolgan. Suyaklar ko'pincha yo'l qurilishlari, konchilik ishlari va yer qazish bilan bog'liq boshqa jarayonlarda topib olingan. Keyinchalik dinozavrlar suyaklarini izlash bilan bog'liq faoliyat – paleontologiya vujudga keldi. Hozirgi kunda paleontologlar dinozavr suyaklari qayerdan qidirishni juda yaxshi biladilar. Ular Yer yuzining barcha tarafida qazishma ishlarini olib boradilar. Toshga aylangan mazkur noyob topilmalar cho'kindi tog' jinslari qatlamlaridan topilmoqda. Bularga qumtosh, bo'r, ohak va toshko'mir kiradi. Jinsnning tarkibiga qarab tuzilishini, dengizda yoki quruqlikda yashaganini, qatlamlarning joylashuviga qarab esa nisbiy yoshini aniqlash mumkin. Sababi, chuqur qatlamdan topilganlari yer sirtiga yaqinlariga nisbatan avvalroq shakllangan bo'ladi.

Dinozavrlar – Mezozoy davrida yashagan hayvonlar hisoblanadi. Qumtoshlardan topilgan dinozavr suyaklari ularning bundan 250–65 mln yillar ilgari yashaganliklaridan guvohlik beradi. Toshga aylangan dengiz kaltakesaklarini Mezozoy davrining cho'kindi dengiz jinslari, misol uchun, dengiz jonivorlarining skeletlaridan tashkil topgan ohakda uchratish mumkin.

Haroratning keskin o'zgarishi, oqayotgan suv va shamol toshsimon qatlarni tozalagan holda tog' jinslarini vayron qildi. Natijada, olimlar qazilmalarni o'ta osonlik bilan izlab topishadi. Bunday jarayonlar daryo va dengizlarning suv bilan yuvilib turadigan qirg'oqlarida yuz beradi. Dinozavrlar va qadimda yashagan boshqa ko'plab jonzotlarning qoldiqlari Yerning turli qit'alari dagi cho'llardan topilgan. Demak biz, asosan, dinozavrlarni cho'l hududlaridan izlashimiz kerak ekan.



GO'SHTXO'R DINOZAVRLAR



Mazkur bo'limda siz yirtqich dinozavrlar bilan yaqindan tanishasiz, ularning ismlarini so'raysiz, jahllaridan qo'rgasidan, o'ljani poylashlari-yu, unga hejum qilishlarigacha kuzatasiz. Shuningdek, ularning ikki oyoqda yurishlarini, hatto katta tezlikda yugura olishlarini o'z ko'zingiz bilan ko'rasiz. Dinozavrlarning osmonda uchuvchi yirtqichlariga ham duch kelasiz, ularni qo'lga o'rgatib, osmoni falakka parvoz qilasiz.




YIRIK ALLOZAVRLAR

Bahaybat yirtqichlar boshi katta, tishlari juda yirik va o'tkir jonivorlar bo'lgan. Doimo orqa oyoqda harakatlangan. Dumi esa muvozanatni saqlab turgan. Oldingi ikki qo'l qalta, o'ta nimjon bo'lgan.

Yirik dinozavrlardan biri Allozavrlar (qizil kaltakesak) edi. Mazkur yirtqich Yura davrida, Shimoliy Amerika va Afrikada yashagan. Uzunligi 12 metr, og'irligi esa 5 tonnagacha bo'lgan. Bu xil kaltakesaklar mohir ovchi bo'lgan. Ovi yurishmagan paytda esa o'lgan hayvonlarni ham paqqos tushirib ketaverган.

Allozavrlar o'ljani quvayotganda oyoqlarini asrashga (ayniqsa, katta tezlikda burilayotgan paytda) harakat qilganlar. Chunki oyog'i singan dinozavr ov qilolmasdan halok bo'lgan.







2023/7-143

MEGALOZAVRLAR

Mazkur yirtqichlar skeleti birinchi bo'lib aniqlangan bo'lsa-da, shu paytgacha bir nechta suyaklari, shu jumladan, bosh va tish suyaklarining parchalari topilgan, xolos. Shuning uchun ham Yura davrida yashagan bu g'aroyib joniving uzunligi 9 metrni, og'irligi esa bir tonnani tashkil etgan, degan taxminlar mavjud.






BILASIZMI?

Avvaliga olimlar
Megalozavrлarga о'xshash
yirtqich dinozavrлarning
barchasi bir turkumdan
tarqalgan, deb
o'ylashgan.

SERATOZAVRLAR

Seratozavrlar (shoxli kaltakesak) – Shimoliy Amerika va Afrika-da yashagan yirtqichlar bo'lib, asosan, yirik jonivorlarni ovlagan. Ularning uzunligi 6 metrga, og'irligi esa naqd 6 tonnaga yetgan. Yirik hayvonlarni ovlashining yana bir sababi, to'da bo'lib ov qilganliklariidir.

Seratozavrлarning burni ustida shoxlari, ko'zining tepasida uchburchak suyakli bo'rtiq, belida esa terilib turuvchi bir nechta uchli suyaklar bo'lган. Ha, aytgancha, ular Yura davrining ikkinchi yarmida hayot kechirganlar.








TIRANNOZAVRLAR

Tirannozavrlar (zolim kaltakesaklar) – yirtqichlar ichida eng yiriklaridan biri hisoblanadi. Ularning uzunligi 14 metrni, og'irligi esa 7 tonnani tashkil qilgan. Bo'yisi esa 6 metrga yetgan. Bo'r davrining so'ngida yashagan ushbu go'shtxo'rning suyaklari 1902-yilda AQSHning Montana shtatidan topilgan.

Mazkur maxluqlarning orqa oyog'i uchta, qo'llari esa ikki barmoqli bo'lган. Oyoqlari baquvvat, ammo qo'llari o'ta nimjon va kalta. Tishlarining uzunligi esa 20 santi-metrga yetgan, o'ta o'tkir, o'ljani nimtalashga moslashgan. Tirannozavrlar chaynay olmagan, o'janing bir qismini uzib olib, butunligicha yutgan. Ularning og'zi odam bemalol sig'a oladigan darajada katta bo'lган.

Eng ajablanarliси, ular katta gavda bilan juda tez yugura oлган. Aniqlangan oyoq izlari shuni ko'rsatadiki, qadamlari orasidagi masofa 5 metrga yetgan. Bunaqa katta qadamlar bilan yugurganda ular soatiga 40 km tezlikka erishgan.






BILASIZMI?

Tirannozavrular 1994-yilgacha
go'shtxo'r dinozavrlarning eng yirigi
deb hisoblanardi. Ammo shu yili
shimoliy amerikalik havaskor
paleontolog og'irligi sakkiz tonna
bo'lgan yirtqich Gigantozavr
skeletini topgan.

DROMEZOZAVRLAR

Dromeozavrlar – uncha katta bo'lmagan, ammo o'tkir tish va tirnoqlarga ega ikki oyoqli dinozavrlar guruhি hisoblanadi. To'da bo'lib ov qilishgani uchun olimlar ularni „o'sha zamon bo'rilari“, dey-dilar. Shuningdek, ularni „raptorlar“, lotincha „talonchi“, „bosqinchi“, „o'g'ri“ ham deyishadi.


Dromeozavrlar nihoyatda tez yugura olishi bilan ham boshqalardan ajralib turgan. Olimlar suyaklarining tuzilishi va oyoq izlarini o'rganishib, mazkur yirtqichlarning qisqa masofalarga yugurishda tezligi 60 km ga yetganligini aniqlagan. Oldingi oyoqlari bilan esa o'ljani ushlab tura olishgan. Mana shu xususiyatlар Dromeozavrлara ov qilish uchun bir qator qulayliklar yaratgan.





DEYNOXEYRUS


Deynoxeyruslar – eng sirli dinozavrlardan biri, ya'ni ularning skeletlari kam topilgan. Hozirgacha Deynoxeyrusning kuraklari va qo'l suyaklarigina aniqlangan, xolos. Qo'l suyaklari tuyaqushsimon dinozavrlarga o'xshab ketgan. Mazkur jonivorlarning tirnoqlari 25 santi metr bo'lgan. Bo'yining uzunligi esa 2,5 metrga yetgan.



BILASIZMI?

Bunday ulkan

„tuyaqushlar“ning ko‘rinishi
bir tarafdan ulkan jo‘jalarga
ham o‘xshab ketgan. Shu
ma’noda bu jonivorlarni
„yirtqich jo‘jalar“, deyish
ham mumkin.



DEYNONIX VA VELOSIRAPTORLAR

Deynonixlar – o'rtacha 3–4 metr uzunlikdagi uzun oyoqli dinozavrlardir. Ushbu yirtqichlarning bosh miyasi va sezgi organlari juda yaxshi rivojlangan. Avval o'ljalarini holdan toyguncha to'da bo'lib ta'qib qilishgan, so'ngra baravariga hujum qilib, o'tkir tishlari va tirnoqlari yordamida uni tilka-pora qilib tashlashgan. Tirnoqlari o'tkir va uzun bo'lgani sababli, olimlar ularga „deynonix“ – dahshatli tirnoq, deb nom berganlar. Bo'r davring o'rtalarida yashagan deynonixlarning tirnoqlari orqa oyoqda joylashgan bo'lib, uzunligi 12 santimetrgacha yetgan. O'ljani quvayotganda tirnoqlarini yerdan ozgina ko'tarib olgan. O'ljani quvib yetgach esa „xanjarlar“ ishga tushgan. Deynonixlarning qoldiqlari Shimoliy Amerikadan topilgan.


Velosiraptorlar Bo'r davrida yashagan dinozavr-larning yana bir turi bo'lib, suyaklari Osiyo qit'asidan topilgan. Velosiraptor so'zining ma'nosi – „chaqqon tovlamachi“ demakdir. Ular deynonixlardan kichikroq gavdalari, mustahkam boshlari va cho'ziqroq jag'lari bilan ajralib turgan. Bu mavjudotlar ham deynonixlar kabi to'da bo'lib ov qilgan.






GALLIMIMLAR

O'zining o'ta chopqirligi va ko'zlarining o'tkirligi bilan boshqa qushsimon dinozavrlardan ajralib turgan gallimimlar hozirgi tuyaqushlardan ikki barobar katta bo'lgan. Ular o'zlarining og'irligi bilan ham boshqa turdoshlaridan farqlanib turgan. Gallimim so'zining ma'nosi „tovuqqa o'xshash“ demakdir. Ularga chopqirlikda hech bir yirtqich tenglasha olmagan.






BILASIZMI?

Gallimimlarning boshqa dinozavrlardan ustunligi baquvvat va chaqqon oyoqlaridir. Bu mazkur jonivorlarga katta tezlikda yugurib, o'ljaga yetib olish imkonini bergen.


ORNITOMIMLAR

Ornitomim kabi dinozavrлarning dushmanidan himoyalanadigan hech qanday xususiyatlari – na o'tkir tish va tirnoqlari, na kuchli bolg'asimon dumi, na kuchli jag'i bo'lmagan uchun yagona tayanadigan narsasi chaqqonlik va tezlik bo'lgan. Ornitomimlar ikki oyoqli uzun bo'yinli, ingichka, tishsiz jag'li kichkina boshga ega jonzotlardir. Tashqi tomondan ushbu xushbichim mavjudotlar hozirgi tuyaqushlarga o'xshab ketgan. Shuning uchun bu dinozavrлarni „qushlarga taqlid qiluvchilar“, deb atashadi.

Ornitomimlarning oyoq suyaklari 1889-yilda AQSHning Kolorado shtatida aniqlangan bo'lib, 30 yildan so'nggina ularning yaxlit skeletini topishga muvaffaq bo'lishgan. Uzunligi 3,5 metrga yetgan. Ixcham gavdali bo'lgani uchun vazni unchalik og'ir bo'lmagan.








O'TXO'R DINOZAVRLAR

Bu bo'limda siz o'txo'r dinozavrlar, ularning turlari, yashash sharoitlari bilan yaqindan tanishasiz. Bahaybat Braxiozavrlar, Diplodoklar, Kamara-zavrлarni shu bo'limda uchratishingiz mumkin. Xuddi qirollar kabi boshiga toj kiyib olgan, urushga ketayotgandek zirhlangan g'aroyib maxluqlar sizni befarq qoldirmaydi. O'txo'r dinozavrlar beozor bo'lishgan.


Shuning uchun ular bilan qo'rmasdan do'stlash-sangiz bo'ladi.



STEGOZAVRLAR

Dinozavrlarning o'txo'r yoki go'shtxo'r bo'lganliklarini bilish uchun ularning tishlariga e'tibor berish lozim bo'ladi. O'txo'r dinozavrlarning tishlari yirtqichlariniki kabi o'tkir emas, tig'simon va bir yoni keskir plastinasimon bo'lgan. Ayrim dinozavr-larning tishlari turlicha shaklga ega edi.


Stegozavrlar xuddi toshbaqalar kabi o't yoki bargni jag'larining shoxsimon tishsiz tomoni bilan yulib olgan. Yemishni esa og'iz bo'shilg'inining ichkarirog'iда chay-nashgan. Ammo ba'zi dinozavrarda o'simlikni chaynash qobiliyati bo'lmagan.





ZAUROPODLAR


Zauropodlar barglarni va yirik-yirik shoxlarni butunligi-cha yutib yuborgan. Zauropodlarning suyaklari orasi-dan olimlar turli xil toshlarni topishgan. Mutaxassislar-ning fikricha, dinozavrlar hozirgi qushlar kabi ataylab toshlarni yutib yuborishgan. Zauropodlar kalta-kesak tos suyakli dinozavrlar tarkumiga man-sub g'aroyib jonivorlardan biri bo'lgan. Birinchi zauropodlar Yura davrida paydo bo'lib, Bo'r davrining oxirigacha yashagan. Ularning tanasi bochkasimon, oyoqlari ustun kabi yo'g'on, dumi va bo'yni uzun edi. Boshlari esa ulkan tanalaridan farqli ravishda an-cha kichkina bo'lgan.






BARAPAZAVRLAR


Barapazavrlarning uzunligi 18 metr ga yetgan. Barapazavr so'zi „og'ir kaltakesak“ degan ma'noni bildiradi. Barapazavrlarning tishlari qoshiqsimon shaklda bo'lgan. Bunday tishlar bilan daraxt barglarini osongina yulib olish mumkin edi. Bu jonivorning bir ajoyib odati: bo'yi yetmagan daraxt barglarini yeish uchun orqa oyog'ida tura olgan. Hozirgi kunda Nyu-Yorkdagi Amerika tabiat tarixi muzeyida jonivor suyaklari aynan ikki oyoqda turgan holda tiklab qo'yilgan. Mabodo u yerga yo'lingiz tushib qolsa, jonivor sizni muzeyning birinchi zalida „kutib oladi“.






BRAXIOZAVRLAR

Yana bir hayratlanarli gigant jonor dinozavrlar ichida eng og'iri deya taxmin qilinadigan Braxiozavr (yelkali kaltakesak)dir. Braxiozavrlarning oldingi oyoqlari orqa oyoqlariga nisbatan uzunroq bo'lgan. Natijada, ularning bo'yni vertikal joylashib, boshqa dinozavrlarning bo'yini yetmagan baland daraxtlarga bemalol yeta olganlar. Braxiozavrlarning bo'yini 25 metrgacha, og'irligi esa 75 tonnagacha yetgan, degan taxminlar mavjud. Jonivorning burni peshanasidagi gumbazsimon teshikda joylashgan. Olimlarning fikricha, bunday burun braxiozavrga ko'l ostida yurganda tepadan nafas olish imkonini bergen. Lekin keyinchalik bu faraz yo'qqa chiqdi. Sababi, agar shunday bo'lsa, ko'lning suvi bunaqangi ulkan gavda va uzun bo'yinda katta bosim bergen bo'lardi va dinozavrning nafas olishi qiyinlashib qolardi.



BILASIZMI?

Dinozavrлarning eng
baland skeleti Germaniyaning
Gumboldt muzeyida namoyish
etilgan. Uzunligi 12 metrli bu skelet
tirikligida 22,5 metr bo'lgan
Braxiozavrga tegishli.
Mazkur topilma Tanzaniyadan
qazib olingan.





DIPLODOKLAR

Diplodoklar – Yer yuzidagi eng uzun dinozavrlardan biri bo'lgan. Ularning uzunligi 28–35 metrgacha yetgan. Diplodok so'zi esa „qo'sh novda“ degan ma'noni anglatadi. Buning sababi, dum umurtqasining pastki qismi qo'sh novdasimon bo'lganligidir. Diplodok skeletining tuzilishi osma ko'priksi eslatib yuboradi. Mazkur joni vorning bo'yisi Braxiozavrlardan uzun bo'lsa-da, vazni ancha yengil (10 tonnadan 30 tonnaga-chag'). Uning uzunligi, asosan, bo'yni va dum qismi tufayli shu darajaga yetgan. Oyoqlari ustunsimon ko'rinishda, ancha yo'g'on bo'lgan.

Bu mavjudotlarning ajablanarli jihatı – bo'yisi baland bo'lsa ham, pastak daraxt barglari bilan oziqlanganliklaridir. 1877-yilda AQSHning Kolorado shtatida ilk bor Diplodoklarning dum va oyoq suyaklari, nisbatan to'liq skeleti esa 1902-yilda AQSHning g'arbiy qismidan topildi.

Diplodoklar ozuqani chaynashga qo-dir emas edi. Sababi ularning tishlari faqat oldinda joylashgan bo'lib, o'simlikni uzib olishga xizmat qilardi, xolos.






BILASIZMI?

Diplodoklar kuniga 500 kg
gacha oziqlangan.
Shu sabab ular to'da-to'da bo'lib
yemish qidirgan. Yurganda
esa shoshmasdan, sekin
qadam bosgan.

SEYSMOZAVRLAR


1979-yilda AQSH-ning Nyu-Meksika shtatidan topilgan gigant kaltakesak uzunligi bo'yicha Diplodokni ham dog'da qoldirdi. Bu noyob topilmaning aniqlanishiga bir sayyohning bexosdan bahaybat suyakka qoqilib ketishi sabab bo'lgan. Olimlarning fikricha, Seysmozavrlarning uzunligi 40 metrni tashkil etgan. Bu gigant dinozavrni shuning uchun ham Seysmozavr, ya'ni „yerni titratuvchi kaltakesak“ deb atashgan. Seysmozavrnинг suyaklari zichlangan qumtoshga muhrlangan va hozirgacha to'liq qazib olinmagan.






SKUTELLOZAVRLAR


Dinozavrlar yashagan davr xavf-xatarga to'la bo'lgan. Yashash uchun ayovsiz kurash kechgan. Ayniqsa, yirtqich dinozavrlardan himoyalanish uchun, uning tanasi tabiiy zirhlardan iborat bo'lgan. Gavdasi og'ir, qimirlashi qiyin, harakati sust bo'lgan dinozavrlar, xuddi urushga ketayotgan o'rta asr askarlari kabi zirhlanib olganlar. Shunday dinozavrlardan biri skutellozavrlar bo'lgan. Skutellozavr so'zining ma'nosi „kichik qalqonli kaltakesak“ demakdir. Bu mavjudotlar ilk zirhli kaltakesaklardan bo'lib, uzunligi 1 metr ga yetgan. Tanasining yon qismi mustahkam plastinasimon suyaklar bilan qoplangan. Bu himoya vositasi ularga kichikroq yirtqichlar changalidan omon qolish imkonini bergen.






NODOZAVR VA POLOKANT

Skutellozavrлarga nisbatan ulkanroq va ancha yaxshi himoyalangan dinozavrлardan birи – Nodozavrлar bo'lgan. Nodozavrлar o'ta kamharakat va burilishi qiyin hayvonlar sanalgan. Ularning uzunligi 4 metrgacha, og'irligi esa bir tonnaga yetgan. Ular Polokant seyshaniyalarga juda yaqin jonivorlar bo'lgan. Polokant seyshaniyalarning „qalqoni“ tanani halqasimon shaklda o'rab olgan mustahkam plastinasimon jismidan tashkil topgan. Bundan tashqari, tananing yonlari va dumning ustki qismi ham o'tkir tig'lar bilan qoplangan. Polokant so'zining ma'nosi – „ko'p tig'lar“ demakdir.





ANKILOZAVRLAR

Ankilozavrular – sust himoya usulidan faol mudofaa usuliga o'tgan dinozavrlardan hisoblanadi. Sababi, ankilozavrlar tanasining ustki qismi nihoyatda baquvvat tig'li zirh bilan qoplangan. Bundan tashqari, egiluvchan va kuchli dumida suyakli bo'rtiq joyi bo'lgan. Bu jonivor tanasining pastki qismi zirhlanmagan bo'lib, xavf yaqinlashganda qornini yerga tirab yotib olgan. Tashqi ko'ri-nishi beso'naqay ko'rinsa-da, bu jonzot o'ta chaqqon himoyalana olardi. Jahli chiqqan paytda dumi bilan qattiq urib Tiranno-zavr kabi yirik yirtqichlarning oyoq va bosh suyaklarini sindirgan.

Ankilozavrning uzunligi

9 metrni, og'irligi esa

4 tonnani tash-

kil qilgan. Ya'ni


og'irlilik jihat-

dan hozirgi

fillarga teng

bo'lgan.





BILASIZMI?


Ankirozavrlar o'txo'rlar ichida yirtqichlardan kuchli himoyalangan dinozavrlardan bo'lishgan. Ular Bo'r davrida keng tarqalib, qirilib ketgan dinozavrлarning eng oxirgilarи bo'lgan.

TRITSEROTOPSLAR

Serotopslar oilasining eng mashhur vakili Tritserotops bo'lgan. Bu so'zning ma'nosi „uch shoxli qiyofa“ demakdir. Uning shoxlaridan ikkitasi juda uzun, aniqrog'i bir metrga yetgan va ko'zining ustki qismida joylashgan. Uchinchi shoxi esa burnining ustida joylashib, nisbatan kaltaroq bo'lgan. Jonivorning bo'yynini suyakli toj himoyalab turgan.

Tritserotopslar shoxli dinozavrlarning so'nggi vakili bo'lib, Bo'r davrining eng oxirida yashagan. Mazkur jonzotlar bo'liq o'tloqlarni izlab to'da bo'lib ko'chib yurishgan.



Ularning qoldiqlari, asosan, Janubiy Amerikadan topilgan. Mazkur topilmalarga ko'ra, ularning bosh suyaklarida kattagina jarohatlar aniqlangan. Bu jarohatlar yirtqichlar bilan olishishdan tashqari erkaklarining hozirgi karkidonlar kabi ichki masalalarni jang vositasida hal qilganliklarini ko'rsatadi, degan taxminlar mavjud. Ular ancha yirik kaltakesaklar bo'lib, og'irligi fillarnikidan ikki barobar katta bo'lgan.






PSITTAKOZAVR

Psittakozavrlar (to'tisimon kaltakesaklar) – uncha katta bo'Imagan dinozavrlardan kelib chiqqan. Ularda shox ham, suyakli qalqon ham bo'Imagan. Boshi va to'-tiniki singari qayrilgan tumshug'i sabab shunday nom olgan. Jonivor orqa oyoqlarida harakat qilgan. Dumi orqali muvozanatni saqlab turgan.





ZAUROLOFLAR

Zauroloflar – o'rdakburun dinozavrlarning eng yiri-gi bo'lib, ularning uzunligi 9–12 metrni tashkil etgan. Zauroloflarning boshqa o'rdakburunlardan farqi – suvda suza organligidir.


Mustahkam va baquvvat dum, barmoqlar orasidagi pardalar jonivorlarni risoladagidek „baliqlar“ga aylantirgan.





PARAZAUROLOFLAR

O'rdakburun dinozavrlarning shunday turi bo'l-ganki, ular boshlaridagi yirik tojlari bilan boshqalar-dan ajralib turgan. Shimoliy Amerikada yashagan Parazauroloflar orqaga qayrilgan katta tojlarga ega bo'lgan. Erkak parazauroloflar tojining uzun-ligi 2 metrgacha yetgan. Qizig'i shundaki, tojlarida burun bo'shlig'i bilan bog'lovchi kanallar mavjud bo'lgan. Parazauroloflar bunday toj orqali ba-land tovush chiqara olgan. Erkaklarining tovushi urg'ochilarinikidan baland bo'lgan. Olimlar maz-kur tovushlarni kompyuter yordamida tiklashga muvaffaq bo'lishdi. Bu tovush chaqmoq ovoziga o'xshab ketgan. Olimlarning fikricha, dinozavrlar mazkur tovushlardan ko'payish mavsumida yoki bir-birlarini xafvdan ogohlantirish uchun foyda-langan bo'lishlari mumkin.






ANXISEROTOPS

Sersuv o'simliklar o'sib yotgan botqoqlarni yaxshi ko'rvuchi, ko'rinishidan ancha yirik bo'lgan dinozavrlar Anxiserotopslar deb ataladi. Bu jonivorlar Tritserotopsga nisbatan ikki baravar kichkina bo'lib, og'irligi hozirgi filarnikiga teng kelgan. Uning ikki pog'onali qalqoni bosh qismida toj kabi joylashgan. Qalqon yupqa suyakli bo'lib, atrofi o't-kir tig'lardan iborat edi.



Ushbu dinozavrlarning ham Tritserotopslar kabi uchta shoxi bo'lgan. Uzun va qayrilgan tumshug'i bilan ozuqani bemalol uzib yeya olgan.






IGUANODONTLAR

Iguanodontlar boshqa dinozavrлarga nisbatan ancha ko'п va puxta o'рганилган. 1878-yilda Belgryaning ko'mir

konidan
katta yosh-
dagi Iguanodont
va bolalarining 30 dan ortiq skeletlari to-
pilgan. Aynan mazkur topilmalar olimlarga
Iguanodontlar haqida ko'plab ma'lumotlar
olish imkonini bergen.

Iguanodontlar – uzunchoq yuzli, yirik o'l-chamli o'txo'r dinozavrлar turidir. Pastki jag'lar o'ta harakatchan va quvvatli bo'lган. Iguanodontlar to'rt oyoqda harakatlanuvchi jonivorlar sanalgan.

Mazkur jonivorlarning uzunligi 6 metr, massasi esa fil o'g'irligiga teng bo'lган. Iguanodontlar katta to'da bo'lib yashaganlar. Bunday to'daga biror ofat kelsa, hammasi qirilib ketgan. Shuning uchun ham ushbu dinozavrлarning qoldiqlari bir joydan ko'plab topilmoqqa.







GADROZAVRLAR

Dinozavrlar ichida 1500 ta tishga ega bo'lgan g'aroyiblari ham topiladi. Ularning tishlari juda zikh joylashgan boilib, biri tushib ketsa, ikkinchisi o'sib chiqqan. Anchagina yirik dinozavrlardan bo'lgan bu mavjudot Gadrozavr deb ataladi. Ularning uzunligi 9–15 metrni tashkil etgan. Gadrozavrlar oziqlanganda to'rt oyoqda yurgan. Xavfni sezgach, ikki oyoqda tezda qochib qolishgan.

Gadrozavr so'zining tarjimasi „o'rdakburun dinozavrlar“ demakdir. Ular juda g'aroyib jonivorlar boilib, jag'lari xuddi o'rdakning tumshug'iga o'xshab ketgan. Shuning uchun ham shunday nom olgan.


Ko'pgina Gadrozavrlarning bosida turli xil o'lcham va shakldagi g'aroyib tojlar joylashgan. Tojlarga qarab ular bir-birini tanib olgan.





KENTROZAVRLAR

Kentrozavrlar – uzunligi 5 metrga yetadigan Stegozavr-larning uzoq qarindoshi hisoblanadi. Bu jonivor dinozavrlar orasida eng tikanlisi bo'lgan. Uning bel qismi bo'ylab o'tgan uchli plastinalar o'tkir nayzalarni eslatadi. Dumanida 7 ta uzun tig' joylashgan. Bundan tashqari, yelkasida 2 ta tig'i bo'lgan. Kentrozavrlar ham to'da bo'lib yashagan. G'arbiy Afrikada bir joyning o'zidan 30 ta kentrozavrga tegishli bo'lgan suyaklar topilgan. Olimlarning fikricha, ular kutilmagan toshqin oqibatida halok bo'lgan.






BILASIZMI?

Yirtqichlar uchun Kentrozavrni
yeish maqsadida unga hujum qilish
oson bo'limgan. Chunki mazkur
jonivor dum qismidagi nayzasimon
tig'lari bilan uncha-muncha
go'shtxo'rni bir zarbada
qulata olgan.



DENGIZ XO'JAYINLARI

A large, textured blue sea turtle swimming in the ocean.


Biz bilan mazkur kitob orqali suv ostiga sayohat qilishga nima deysiz? Dinozavrlar dengizda ham o'z hukmronliklarini yurgizishgan. Bu baliqsimon maxluqlarning tashqi ko'rinishi ham o'ta g'aro-yib bo'lgan. Ishonsangiz, olimlar ushbu dengiz kaltakesaklarining 80 ga yaqin turini aniqlashgan. Bu bo'limda shular haqida so'z boradi.



IXTIOZAVRLAR

Ixtiozavrlar (baliqsimon kaltakesaklar) – Trias davrining o'rtalarida paydo bo'lib, Bo'r davrining oxirida qirilib ketgan. Jonzotning badani silliq bo'lib, o'tkir fishli uzunchoq jag'ga ega bo'lgan. To'rt juft (8 ta) suzgich rul vazifasini o'tab bergen. Kuchli du-midan „dvigatel“ o'rnida foydalangan. Ixtiozavrlar tashqi tomondan delfinga o'xshab ketgan. Jonivor juda tez suza olgan. Ya'ni tezligi soatiga 40 km ga yetgan.






SHONIZAVRLAR

Fanga ma'lum bo'lgan dengiz kaltakesaklari ichida eng yirigi shonizavrlar bo'lgan. Ularning uzunligi 15 metr ga yetgan. Bu jonivor ulkan tanaga va ingichka ikki juft suzgichga ega bo'lgan. Kallasi va tumshug'i esa uzunchoq shakllangan.

Shonizavrlar to'da bo'lib hayot kechir-gan. Kattaligi ulkan kitcha keladigan mazkur jonivorlarning 30 ga yaqin skeleti AQSHning Nevada shtatidan topilgan. Bu esa ularning to'da bo'lib yashaganlarini isbotlaydi. Tax-minlarga ko'ra, ular baliq va kalmarlar bilan oziqlangan.








PLEZIOZAVRLAR

1924-yilda Angliyaning dengiz qirg'og'idagi qoyalarda joylashgan tog'jinslaridan uzun bo'yinli g'aroyib dengiz reptiliyasining skeleti topib olinadi. Bu topilma paleontologiya ishqibozi bo'lgan Meri Enning tomonidan aniqlanadi. Mazkur jonzotga olimlar Pleziozavr deya nom berishadi. Uning o'ziga xosligi – haddan tashqari uzun bo'yinga ega ekanlidir. Ya'ni bu bo'yin 40–76 umurtqadan tashkil topgan. Maxluqning boshi juda kichik va ingichka, jag'i esa o'tkir va biroz egilgan mayda fishlarga to'la bo'lgan.

Jonivor ammonitlar, baliqlar, hatto uchuvchi dinozavrlar – Pterodaktillar bilan oziqlangan.





PLIOZAVRLAR


Pliozavrlar – Pleziozavrning ajdodlari bo'lib, farqi, Pliozavrarning bo'yni o'ta qisqa bo'lgan. Yirik tanasi, mushakdor dumi, uzun suzgichlari, timsohnikiga o'xshab ketuvchi katta kallasi va qo'rqinchli jag'i jonivorning haybatini yana-da oshirgan.

Mazkur yirtqich sayyoramizdag'i eng yirik jonivorlardan bo'lgan. Uzunligi esa 15 metrgacha yetgan.

Shimoliy Muz okeanidagi Shpitsiber-gen arkipelagidan Pliozavrarning ko'plab suyaklari topilgan.

Pliozavrlar baliq va mollusklar, hatto ayrim dengiz dinozavrlarini ham ikkilanmay paqqos tushirgan. Olimlar ning aytishicha, jonoruning jag'i Tiranozavrnikidan 4 barobar kuchli bo'lib, katta avtomobilni bemalol ikkiga bo'lib yuborishi mumkin.









QANOTLI DINOZAVRLAR


Bu bo'lim sizlarni osmon bo'ylab sayohatga taklif etadi. Qanotli dinozavrlar bilan bulutlar orasidan uchib o'tish sizga zavq bag'ishlaydi. Sayohat davomida ularning boshqa, yerdagi va suvdagi qarindoshlariga nisbatan yengilroq va kichikroq ekanligiga guvoh bo'lasiz. Lekin shu holatda ham ular sizni bemalol havoga ko'tarib keta oladilar. O'zingizni haqiqiy uchuvchilardek his etasiz.


RAMFORINXOIDLAR

Ramforinxoidlar – uzun dumli, uchuvchi qushsimon dinozavrlardir. Umuman, uchuvchi kaltake-saklarni Pterozavrlar deb atashadi. Pterozavrlar ikki guruhga bo'linadi. Uzun dumli (Ramforinxoidlar) va qisqa dumli (Pterodaktillar).

Ramforinxoidlar – ilk uchuvchi kaltakesaklardan bo'lgan. Mazkur jognivorlarning paydo bo'lishi Trias davrining oxiriga to'g'ri keladi. Yura davrining so'nggida ular qirilib ketgan.

Ramforinxoidlar turkumi nomi ularning eng keng tarqalgan vakili – Ramforinxlardan kelib chiqqan. Bu so'z yunonchadan tarjima qilin-ganda „egri tumshuqli“ demakdir. Bunday nomlanishiga sabab mazkur mavjudotning tumshug'i tepaga biroz qayrilganligidir.





BILASIZMI?

Ramforinxoidlar uzun dumli
Pterozavrлarning eng yirigi
bo'lib, qanotlarining uzunligi
1,5 metrni tashkil
etgan.

SOCHLI SORDESLAR

Sochli sordeslarni bosh-qacha qilib „sochli ajina“ ham deyishadi. Nisbatan ancha kichkina mazkur qanotli dinozavrlarning o'lchami qarg'a hajmiga teng bo'lgan. Ular ko'rshapalaklarga o'x-shash hasharotlar bilan oziqlangan.

Sochli sordeslar uzun dumi, bo'rtib chiqqan ko'zi va tumshug'idan chiqib turuvchi tishlari bilan o'ta qo'rjinchli ko'ringan.





BILASIZMI?


Mazkur Pterozavrлarning
so'nggi Yura davriga oid
skeletlari Janubiy
Qozog'istondan
topilgan.

PTERODAKTILLAR

Pterodaktillar – kalta dumli uchuvchi dinozavrlar uzun dumli qushsimon dinozavrлarning avlodi hisoblanadi. Uzun dumli Pterozavrlar Bo'r davrining boshiga kelib yo'q bo'lib ketgach, evolutsiya davomida dumi ix-chamlashgan Pterodaktillar osmon hukmronligini qo'lga olgan.

Pterodaktil so'zining ma'nosi „barmoqli qanotlar“ demakdir. Bunday nom qo'yilishining sababi qanot pardalari ning barmoqlariga birikkanligidir. Uch tirnoqli qanotlar Pterozavr-larga qoya va daraxtlarga chiqish imkonini bergen.



A detailed illustration of a Pterodactyl with its massive wings spread wide, flying over a lush, green prehistoric landscape. In the background, there are several small birds in flight and a distant shoreline with trees. The foreground shows more vegetation and a body of water.


BILASIZMI?
G'arbiy Mo'g'uliston
hududidan Bo'r davriga oid,
qanotlarini yozganda 1,5
metrga yetadigan, uncha katta
bo'limgan Pterodaktil
suyaklari topilgan.

KETSALKOATL

Olimlarning fikricha, yerda ya-shagan uchuvchi dinozavrлarning eng yirigi, Ketsalkoatl hisoblanadi. Bu bahaybat qushning tumshug'i tishsiz bo'lib, hozirgi qushlar tumshug'i kabi tepe qismida toji bo'lgan.

Ketsalkoatl qoldiglari kam topilgani uchun bu jonivorlar haqidagi ma'lumotlar ham ko'p emas. Tax-minlarga ko'ra, ular Grif va Kondorlar kabi o'laksaxo'r bo'lishgan.






BILASIZMI?

Ketsalkoatl so'zi
„qanotli ilon“ degan ma'noni
anglatadi. Bu bahaybat
„qush“ qanotini yozganda
12 metrgacha yetgan.
Ular qushsimon dinozavrлarning
eng yirigi bo'lgan.

SHAROVIPTERIKSLAR

G'aroyib jonivorlar bo'lmish dinozavrlar orasida uchishga urinuvchilari ham bo'lgan. Ularning bir turi ko'rinishi xuddi varrakni eslatuvchi Sharovipterikslar edi. Bu nom ularni kashf etgan olim A.G.Sharov sharafiga qo'yilgan.

Sharovipteriksning gavdasi, qo'l-oyoqlari va dumি orasini yupqa matoga o'xshab ketuvchi teri qoplagan. Natijada, bu g'aroyib dinozavr mazkur pardasini keng yoyib olib, daraxt tepasiga chiqib, u daraxtdan bu daraxtgа uchib yurgan. U daraxt tepasida turib olib qarhisidagi boshqa bir daraxtni mo'ljallagan va orqa oyoqlariga tayanib bor kuchi bilan sakragan va qo'l-oyoqlari pardasini yozib olgan. Natijada, ajabtovr parvoz yuzaga kelgan.






KYUNEOZAVRLAR

Trias davrida uncha katta bo'lmagan, qanotini yozganda kapalakni eslatib yuboruvchi Kyuneozavrlar yashagan. Ularning skeletlari Angliya hududidan topilgan.

Kyuneozavrlar turli xil hasharotlar, jumladan, qanotli hasharotlar bilan oziqlangan. O'lijaning ortidan yetib olish yoki dushmanidan qochish maqsadida o'ziga xos qanotlarga ega bo'lган. Mazkur qanot bilan jonivor osmonga ko'tarila olmasdi, ammo daraxtdan daraxtga uchib o'tishni uddalardi.



A close-up photograph of a large green iguana. The iguana is positioned diagonally, facing towards the bottom left. Its body is covered in a pattern of dark green and brown scales. A prominent red crest runs along its neck and back. It has a long, slightly hooked tail. The iguana is resting on a dark, textured surface, possibly a branch or rock, with its front legs visible and its head turned slightly to the right.

BILASIZMI?


Hozirgi reptiliyalar
orasida ham daraxtdan
daraxtga uchib o'ta oladiganlari
mavjud. Janubi-sharqiy Osiyodagi
uchar ajdarhocha shunday jonivorlar-
dandir. Tanasining yon tomonlarida
joylashgan teri pardalari – qanotlarini
yozib, uchar ajdarhocha u
palmadan bu palmaga
parvoz qilgan.

LONGISKVAMALAR

Dinozavrlar orasida balandligi bir necha qavatli uydek keladigan bahaybatlaridan tashqari, bir qarich ham chiqmaydigan mittilari ham bo'lgan. Bularidan biri skeletining uzunligi 15 santimetr keladigan Longiskvamalar edi. Bu g'aroyib kaltakesak qoldiqlari 1969-yili Markaziy Osiyodan topilgan.

Uning bel sohasida patni eslatib yuburuvchi ikki qator uzun tangachalari bo'lgan. Shu sababli ham ushbu mitti dinozavrlar Longiskvama, ya'ni „uzun tangachali“ deb atalgan.

Qiziqarlisi shundaki, olimlar Longiskvamalar uzun patsimon tangachalarini nima uchun ishlatganlari borasida bir to'xtamga kela olishmayapti: ba'zi bir paleontologlar, buni havoga ko'tarilish uchun ishlatishgan, desa, ba'zilari, yo'q, jonivor tangachalaridan parashut sifatida foydalangan, deydi. Shuningdek, tangachalar bilan jonivor urg'ochilarni jalb qilgan yoki dushmanlarini qo'rqaqitgan, degan qarash ham mavjud.





„YOSH BILIMDON ENSIKLOPEDIYASI“

Tuzuvchi

OYBEK XAYDAROV

DINOZAVRLAR

„Ziyo nashr“ nashriyoti

Toshkent – 2022

Muharrir
Badiiy muharrir
Musahhih
Sahifalovchi

Abdurahmon Jo'rayev
Quvondiq Shomurodov
Malika Kamolova
O'g'iloy Qurbonova

Nashriyot litsenziyası AA № 0008, 27.03.2019








11.02.2022 da bosishga ruxsat etildi. Qog'oz bichimi 70x90^{1/16}.
Ofset qog'ozı. „Century Gothic“ garniturasida ofset usulida bosildi.
Shartli bosma tabog'i 7,02. Adadi 7000 (3-zavod). Shartnoma № 102-19.

„Ziyo nashr“
Mas'uliyati cheklangan jamiyat
Toshkent shahri, Uchtepa tumani, 23-mavze, 42-uy.

„Ziyo nashr“ MChJ da chop etildi.
Toshkent shahri, Bektemir tumani,
Husayn Boyqaro ko'chasi, 3-uy.

• YOSH BILIMDON ENSIKLOPEDIYASI •

TURKUMIDA CHOP ETILGAN KITOBLAR



ZIYO NASHR



fb.com/zizo.nashr



zizonashr@mail.ru



YANGI
KITOBALARIMIZNI
INTERNET OROALI
ONLAYN
XARID
QILISH UCHUN
QR-KODINI
SKANER QILING.

ISBN 978-9943-5883-3-2



9 789943 588332